

## **BRONXIAL ASTMA KASALIGINING HOZIRGI KUNDAGI DOLZARBLIGI SHU BILAN BIR QATORDA, TARQALISHI VA DAVOLASH USULLARI**

**Zokirova Jasmina**

*Buxoro davlat tibbiyot instituti*

*3-bosqich talabasi*

*jasminmed06@gmail.com*

**Annotatsiya:** Bronxial astma kasalliging dolzarbliji shundaki, surunkali yallig`lanish bilan kechadigan, nafas yo`llarining tutilishi va bronxlarning yuqori sezgirligi bilan namoyon bo`ladigan kasallikdir. Bu kasallikning dolzarbliji, klinik belgilari, tashxis usullari, davolash va profilaktika choralar yoritilgan. Bronxial astma hayot sifatini pasaytiruvchi, og`ir asoratlar va o`limga olib kelishi mumkin bo`lgan muhim tibbiy muammo sifatida ko`rsatilgan.

**Kalit so`zlar:** Bronxial astma, bronxospazm, epidemiologiya, tashxis,profilaktika.

**Kirish.**muammoning dolzarbliji shundaki, bugungi kunimizda bronxial astma ya`ni - nafas yo`llarining surunkali yallig`lanish kasalligi ,u butun dunyo sog`liqni saqlash tizimida dolzarb muammo bo`lib hisoblanmoqda .Kasallik yildan -yilga ko`payib borayotganligi va har bir yosh insonlarda uchrashi bronxial astmaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Dunyo bo`ylab har yili bronxial astma tufayli minglab odamlar hayotdan ko`z yumadi va milionlab bemorlar bilan doimiy kurashmoqda. Jahon sog`liqni saqlash tashkilotiga ko`ra bronxial astma bilan dunyo bo`yicha taxminan 262 million kishi kasallangan taxminan 461 mingta o`lim holatlari ushbu kasallik bilan bog`liq. Astma kasalligi rivojlangan mamlakatlarda ham, yuqori uchrash ko`rsatkichiga ega bo`lib ayniqsa bolalar va o`smirlar orasida keng tarqalgan.So`ngi 30 yil Ichida bronxial astma bilan kasallanish keskin oshyapti shuningdek, O`zbekistonda ham kam emas. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi ma`lumotlaridaham bolalar orasida astma ko`payib borayotganligi aytib, o`tilgan. Kasallikning ko`payishiga ko`plab omillar sabab bo`lyaptiEkologik ifloslanish,allergenlarning ko`payishi- havodagi changlar,bahor kelganda gullarning changi yoki, dalalardagi donli ekinlar paxta bug`doy mavsumi, quruq shamol bilan keladigan chang-to`zonlar, noto`g`ri ovqatlanish xurujni kuchaytiradi. Shuningdek,chekish odati,semizlik,uy hayvonlari juni ham astmaga sabab bo`ladigan omillardan hisoblanadi. 2019-yil tadqiqotlariga ko`ra, bronxial astma dunyo bo`yicha umumiylashtirilgan kasallik yukining sezilarli qismini tashkil qiladi. Kasallik nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy -iqtisodiy muammo sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, bronxial astma hozirgi kunda global darajada dolzarb sog`liq muammosi

bo`lib, kasallikni erta aniqlash, samarali davolash va oldini olish choralari butun dunyoda tibbiy yondashuvlarning muhim yo`nalishlariga aylangan.

### Bronxial astma rivojlanishining sabablar

Bronxial astma-bu nafas yo`llarining surunkali yallig`lanish kasalligi bo`lib, uning rivojlanishi ko`plab ichki va tashqi omillar ta`siri bilan yuzaga keladi. Kasallikning kelib chiqishiga ko`pchilik omillar sabab bo`lishi mumkin ayrim odamlarda keksalik Yoshida ham rivojlanadi ko`pincha biror kasallik nafas yo`llarining jiddiy yallig`lanishi zotiljam , qizamiq,ayollarda jinsiy a`zolarda yallig`lanishi yoki qattiq asabiylashishdan ham yoki, genetik moyillik, atrof-muhit omillari, allergenlar va immun tizimining o`zgarishi muhim rol o`ynaydi. Astmaning rivojlanishiga ikkita asosiy omil ajratib ko`rsatiladi. Bu genetik moyillik va atrof-muhit omillari.Astma bilan kasallangan bemorlarning ko`pchiligidagi qarindoshlar orasida ham ushbu kasallika chalinganlar uchraydi, bu esa kasalliknig irsiy xususiyatini ko`rsatadi.Atrof- muhit omillar orasida: Uy changi, hayvon junlari, o`simlik changlari , ishlatiladigan kimyoviy moddalar kir yuvish kukunlari hasharotlarga qarshi zaharli sepmlar , ho`l va quruq mevalarni uzoq saqlash uchun qo`llaniladigan dorilar , kutubxonalarda saqlanayotgan eski kitoblarning gardlari , devorga osilgan yoki polga to`shalgan gilamlarning changlari bulardan tashqari , xondaonlardagi uy kanalari eskirgan jun yopinchiquvchilarda ko`p uchraydi., xovlilarda o`sadigan ba`zi daraxtlar chinor terak xonaki issiqonli hayvonlar oziq ovqatlardan sitrus mevalar va donlimahsulotlar dorilardan penitsilin, streptomitsin aspirin, sulfanilamidlar uzoq vaqt qabul qilinganda ham , maishiy kimyoviy moddalar, tamaki tutuni va atmosfera ifloslanishi kabi allergenlar mavjud. Shuningdek kasallik rivojlanishida respirator infeksiyalar ,antibiotiklarni tez-tez qabul qilish, tug`ruqdan keying davrda immun tizimining yetishmasligi ham muhim rol o`ynaydi.shuningdek aytadigan bo`lsam, chaqaloqligida ko`krakdan erta ajralib sun`iy ovqatlar bilan boqilgan bolalarda ta`kidalangan mahsulotlar berilganda ularning badaniga toshma toshishidan boshlab to bronxial astma xurujigacha olib boradigan allergik kasallik belgilari paydo bo`lishi mumkin. Patogenez nuqtai nazardan astma nafas yo`llarining shilliq qavatida yallig`lanish jarayonida T-limfotsitlar, eozinofillar va boshqa immun hujayralari ishtirok etadi. Natijada , nafas yo`llari sezgirligi ortadi, shilliq ishlab chiqarish kuchayadi, bronxlarning devori qalinlashadi va torayadi, bronxospazm yuz beradi. Kasallikning belgilari 4 bosqichda kichadi.Birinchi bosqichda xurujdan bir necha daqiqa yoki bir necha soat oldin bemorni yo`tal tutadi, tomog`I, ko`zlar, teri yoki quloq suprasi qichishadi. Bemorda siydik ajralishi kuchayadi bu belgilar bronxial astmaning dastlabki belgilari hisoblanadi. Ikkinci bosqich bo`g`ilishlar bilan kechadi, nafas yo`llaridagi mayda bronxlar torayadi ularning shilliq qavati shishib brobx naychalarida shilimshiq modda ajraladi. Bemorning ko`krak qafasi siqiladi, u to`liq nafas chiqara olmaydi ko`pincha nafas chiqarish hushtaksimon

xirillash bilan kichadi. Bemorning bo`yindagi venalari shishadi shu paytda yo`tal tutadi va balg`am tupuradi u quyuq shilimshiq ba`zan ko`pikli ham bo`lishi mumkin xuruj uzoq vaqt davom etsa jigar kattalashadi va oyoqlarda shish kuzatiladi... Uchunchi bosqichda xurujlar tez -tez qaytalanadi ko`p miqdorda balg`amli yo`tal paydo bo`lib bermorga yengillik beradi .To`rtinchi bosqichda ham kasallik kuchayib ketsa organizmda boshqa a`zolar ish faoliyati ham yomonlashishi mumkin

### Oqibatlari va asoratlari

Bronxial astma vaqtida nazorat qilinmasa yoki muntazam davolanmasa, turli og`ir asoratlar va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin .Eng ko`p uchraydigan asoratlar astmatik status-kuchli va uzoq davom etuvchi astma xuruji, oddiy dori vositalariga javob bermaydi va hayot uchun xavf tug`diradi. Bronx devorining doimiy torayishi-uzoq muddatli davolanish natijasida bronxlar doimiy ravishda torayadi, nafas yetishmovchiligi kuchayadi. Surunkali yurak-o`pka yetishmovchiligi-doimiy nafas yetishmovchiligi yurakka yuklama beradi va yurakning o`ng qismida yetishmovchilik rivojlanishi mumkin. Psixologik oqibatlar-doimiy kasallik va cheklovlardan tufayli bemorda xavotir, tushkunlik va ruhiy charchoq yuzaga keladi. Shuningdek, bemorning jismoniy faolligi cheklanadi, uyqu sifati yomonlashadi va hayot sifati pasayadi.

Kasallikning diagnostikasi-bronxial astmani aniqlashda birinchi navbatda bemorning shikoyatlari va kasallik tarixi juda muhim hisoblanadi. Kasallikning asosiy klinik belgilari – nafas qisishi, xirillash , yo`tal va ko`krakda bosim hissini keltirib chiqaradi. Bu belgilar asosan kechasi yoki erta tongda kuchayadi, shuningdek allergenlar jismoniy zo`riqish, sovuq havo yoki kuchli his -tuyg`ulardan keyin yuzaga kelishi mumkin. Asmani aniqlashning asosiy usuli spirometriya hisoblanadi. Bu tekshiruv orqali bemorning nafas chiqarishdagi majburiy bir soniyadagi hajmi (FEV1) va majburiy haydalgan umumiy hajm (FVC)o`lchanadi. Agar bronxlarni kengaytiruvchi dori berilgandan keyin FEV1 Miqdori 12% va 200 ml dan ko`proqqa oshsa, bu astmani ko`rsatadi .

Davolash usullari esa bronxial astmani to`liq davolab bo`lmaydi, lekin kasallikni nazoratga olish, alomatlarini kamaytirish va xurujlarning oldini olish mumkin. Shuning uchun davolash doimiy, bosqichma -bosqich yondashuvda asoslanadi. Yallig`lanishga qarshi terapiya- bu kasallikni nazorat qilishga qaratilgan asosiy yo`nalishdir. Ingalyatsion glyukokortikosteriodlar-budeozid flutikazon. Ular bronxlardagi yallig`lanishni kamaytiradi. Bronxlarni kengaytiruvchi dori vositalari :Beta-2 agonistlar salbutamol(tez yordam uchun), formoterol(doimiy qo`llash uchun) Antixolinergiklar-ipratropium, tiotropium ular nafas qisishida, xirillash paytida tez ta`sir qiladi. Qo`shimcha davolash usullari: Allergenlardan uzoqlashish bemor qaysi allergenga sezgir bo`lsa, undan ehtiyyot bo`lishi kerak. Emlashlar: Gripp vapnevokokk infektsiyalarga qarshi emlash tavsiya qilinadi. Ingalyatorlarni to`g`ri ishlatalish bu juda

muhim, aks holda dori to`g`ri samara bermaydi. Bronxial astmaning dorilasiz davolash usullari naturoterapiya ham yo`lga qo`yilgan bronxial astmaning davolash kechiktirilganda, u zo`rayib bir qancha og`ir asoratlarga olib kelishi mumkin ya`ni o`tkir o`pka emfizemasi , o`pka barotravmasi yurak – tomir faoliyatining buzilishi ro`y beradi

Bronxial astmaning profilaktikasiga keladigan bo`lsak, atrof -muhitdagi allergenlar(chang,uy hayvon junlari,mog`or) miqdorini kamaytirish.Uyda muntazam nam tozalash, chang yutgichdan foydalanish. Sovuq havo,kuchli hidlar va tutundan saqlanish. Chekishni butunlay tashlash va passiv chekishdan ham uzoq bo`lish. Gripp va pnevmokokk infeksiyalariga qarshi emlanish kerak.Infeksiyalardan himoyasi esa, tez-tez shamollah va bronxitlarni vaxtida davolash,allergen aniqlansa, u bilan muloqotni kamaytish kerak bo`ladi. Zarurat bo`lsa,maxsus allergen-spetsifik immunoterapiya o`tkaziladi. Shuningdek, bemor o`z holatini tushunishi ingalyatorni to`g`ri ishlatishni o`rganishi , dori-darmonlarni muntazam qabul qilishi -profilaktikaning eng muhim qismi hisoblanadi.

### Sog`lom turmush tarzini rivojlantirish

Biz sog`lom turmush tarzini rivojlantirishimiz kerak , shundagina bronxial astma xurujlarini kamaytirishimiz mumkin bo`ladi avvalo, chekishdan butunlay voz kechishimiz zarur , chunki tamaki tutuni nafas yollarini qo`zg`atadi. Passiv chekish ham bolalarda astma xurujlarini kuchaytirdi. Muntazam jismoniy faollik o`pka hajmini yaxshilaydi va immune tizimini mustahkamlaydi. Biroq jismoniy mashqlar shifokor nazorati bilab bajarilishi kerak .Toza havoda sayr qilish nafas yo`llarini chiniqtiradi va stressni kamaytiradi. Chang- to`zon ko`p bo`ladigan joylardan saqlanishimiz astmani oldini olishimizda muhim ahamiyatg ega .Uyda gigiyenaga rioya qilgan holda xonalarni muntazam shamollatib turish yostiq va ko`rpa to`shaklarni changlardan tozalab tez -tez almashtirib turishimiz kerak.Ovqatlanishda ham meva va sabzavotlarni ko`proq vitamin va minerallarga boy mahsulotlarni istemol qilish kerak albatta, parhezlarga amal qilib moyorida Yrim tayyor mahsulotlar va gazli ichimliklardan cheklanishimiz, yetarlicha uyqu va dam olish organizmni tilashga yordam beradi psixologik uyqu yoki meditatsiyalar, yengil mashqlar tavsiya etiladi . Dori vositalarni to`g`ri ishlatishni bilish ham oldini olishning br qismi, sog`lom turmush tarzi faqatgina astmani emas balki boshqa ko`plab kasallikkarning oldini oladi, shu bois ham astma bilan kurashishda sog`lom turmush tarzini shakllantirish eng asosiy omillardan deb o`layman.

### Foydalanilgan adabiyotlar .

1. O`zbekiston Respubliasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi 2022.
2. Karimov.AA. Rustamov.BB.2020
3. Global Strategy for Asthma Management and Prevention. 2024.  
<https://ginasthma.org/>

4. Harrison's Principles of Internal Medicine. 21st Edition. McGraw Hill, 2022. – Vol. 2, pp. 1270–1283.
5. Fishman's Pulmonary Diseases and Disorders. 6th Edition. McGraw Hill, 2023. – Vol. 1, pp. 912–930.
6. Nelson Textbook of Pediatrics. 21st Edition. Elsevier, 2020. – Vol. 2, pp. 2154–2160.
7. Kumar, V.; Abbas, A.K.; Aster, J.C. Robbins Basic Pathology. 11th Edition. Elsevier, 2022. – pp. 515–517.
8. Национальное руководство по пульмонологии. Под ред. Чучалина А.Г. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020. – 864 б.